ISSN 3060-5091 (Online)
Farg‘ona metodika maktabi – Ферганская методическая школа – Fergana methodical school
2026-yil 6-son.

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.24367179

Bo‘lajak tarbiyachilarning iqtisodiy madaniyatini rivojlantirishda metodologik yondashuvlar integratsiyasi

Azimova Musharraf Utkirovna –
Navoiy davlat universiteti dotsenti,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: musharraf17.04.1984@gmail.com
ORCID: https://orcid.org/0009-0006-5663-3335

Annotatsiya. *Maqolada bo‘lajak tarbiyachilarning iqtisodiy madaniyatini rivojlantirishning metodologik asoslari nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Tizimli, kompetensiyaviy, faoliyatga yo‘naltirilgan, aksiologik, integrativ va kontekstual yondashuvlarning mazkur jarayondagi funksional imkoniyatlari aniqlashtirilgan. Nazariy tahlil, qiyoslash, umumlashtirish, tizimlashtirish va konseptual modellashtirish asosida ushbu yondashuvlarni o‘zaro integratsiyalash mexanizmi ishlab chiqilgan. Natijada iqtisodiy bilimni anglash, qadriyatli munosabat, iqtisodiy tanlov, mas’uliyatli xulq-atvor, refleksiya va kasbiy-pedagogik transformatsiya bilan bog‘laydigan metodologik konstruksiya taklif etilgan. Uning bo‘lajak tarbiyachilar kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishdagi ilmiy-metodik ahamiyati asoslangan.*

Kalit so‘zlar: *iqtisodiy madaniyat, bo‘lajak tarbiyachi, metodologik yondashuv, tizimli yondashuv, kompetensiyaviy yondashuv, faoliyatli yondashuv, aksiologik yondashuv, integrativ yondashuv, kontekstual yondashuv, kasbiy-pedagogik transformatsiya.*

Социально-педагогическая и психологическая сущность понятий предвидения и прогнозирования

Аннотация. *В статье теоретически анализируются методологические основы развития экономической культуры будущих воспитателей. Уточнены функциональные возможности системного, компетентностного, деятельностного, аксиологического, интегративного и контекстного подходов. На основе теоретического анализа, сравнения, обобщения, систематизации и концептуального моделирования разработан механизм интеграции данных подходов. Предложена методологическая конструкция, обеспечивающая взаимосвязь экономических знаний с их осмыслением, ценностным отношением, экономическим выбором, ответственным поведением, рефлексией и профессионально-педагогической трансформацией. Обосновано научно-методическое значение предложенной конструкции для совершенствования профессиональной подготовки будущих воспитателей.*

Ключевые слова: *экономическая культура, будущий воспитатель,*

методологический подход, системный подход, компетентностный подход, деятельностный подход, аксиологический подход, интегративный подход, контекстный подход, профессионально-педагогическая трансформация.

Social, pedagogical and psychological essence of the concepts of foresight and forecasting

Annotation. *The article theoretically examines the methodological foundations for developing the economic culture of prospective preschool teachers. The functional potential of systemic, competency-based, activity-oriented, axiological, integrative, and contextual approaches is clarified. Based on theoretical analysis, comparison, generalization, systematization, and conceptual modeling, a mechanism for integrating these approaches is proposed. As a result, a methodological construct linking economic knowledge with understanding, value-based attitudes, economic choice, responsible behavior, reflection, and professional-pedagogical transformation is developed. The scientific and methodological significance of this construct for improving the professional preparation of prospective preschool teachers is substantiated.*

Keywords: *economic culture, prospective preschool teacher, methodological approach, systemic approach, competency-based approach, activity-oriented approach, axiological approach, integrative approach, contextual approach, professional-pedagogical transformation.*

KIRISH

Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning murakkablashuvi shaxsdan mavjud resurslarni oqilona boshqarish, ehtiyojlarni ustuvorlashtirish, muqobil variantlarni baholash, iqtisodiy qarorlarning qisqa va uzoq muddatli oqibatlarini oldindan ko‘ra olish hamda qabul qilingan qaror uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishni talab etmoqda. Mazkur talablar pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislar, xususan, maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarining kasbiy tayyorgarligiga ham bevosita daxldordir.

Bo‘lajak tarbiyachining iqtisodiy madaniyati kundalik hayotdagi moliyaviy savodxonlik bilan chegaralanmaydi. Tarbiyachi kasbiy faoliyatida moddiy va nomoddiy resurslardan foydalanadi, vaqtni taqsimlaydi, ta’limiy ehtiyojlar orasidan ustuvorlarini belgilaydi, didaktik vositalarni tanlaydi, mavjud materiallardan qayta foydalanadi, pedagogik faoliyat samaradorligi bilan sarflanayotgan resurs o‘rtasidagi nisbatni baholaydi. Shu bilan birga, uning iqtisodiy qarorlari bolalar manfaatlari, pedagogik sifat, xavfsizlik, tejamkorlik va ijtimoiy mas’uliyat bilan ham bog‘liq bo‘ladi. Maktabgacha yosh iqtisodiy mazmundagi dastlabki tushuncha va munosabatlar shakllana boshlaydigan muhim davr hisoblanadi. H.Konowaluk-Nikitin va S.Nazaruk maktabgacha yoshdagi bolalarning iqtisodiy ta’limini erta yoshdan boshlash zarurligini ta’kidlab, bolalar iqtisodiy bilimlarni nafaqat egallashi, balki ularni ayrim kundalik vaziyatlarda qo‘llash tajribasiga ega bo‘lishi lozimligini ko‘rsatadilar [6]. Mazkur holat tarbiyachining o‘zida yetarli iqtisodiy va pedagogik tayyorgarlik mavjud bo‘lishini talab qiladi. J.D.Jayaraman, S.Jambunathan va R.Adesanya tomonidan 152 nafar maktabgacha ta’lim pedagoglari ishtirokida o‘tkazilgan tadqiqotda ularning moliyaviy savodxonlik darajasi o‘rganilgan va iqtisodiy-moliyaviy kurslarni o‘zlashtirish darajasi pedagoglarning mazkur sohadagi tayyorgarligi bilan bog‘liqligi aniqlangan [6]. Bu natija bo‘lajak tarbiyachilar tayyorgarligiga iqtisodiy mazmunni maqsadli kiritish zarurligini ko‘rsatadi. Biroq bo‘lajak tarbiyachilarning iqtisodiy madaniyatini shakllantirish uchun faqat iqtisodiy bilimlarni ta’lim mazmuniga kiritish yetarli emas. Chunki iqtisodiy madaniyat bilim, qadriyat, motiv, iqtisodiy tanlov, faoliyat, mas’uliyat, refleksiya va kasbiy tajribani o‘zaro bog‘laydigan integrativ sifatdir. Shu sababli

uning rivojlanishini metodologik jihatdan asoslashda birgina yondashuvning imkoniyatlari cheklangan bo‘lishi mumkin.

Mazkur maqolaning maqsadi bo‘lajak tarbiyachilarning iqtisodiy madaniyatini rivojlantirishda tizimli, kompetensiyaviy, faoliyatga yo‘naltirilgan, aksiologik, integrativ va kontekstual yondashuvlarning funksional imkoniyatlarini aniqlash hamda ularni yagona metodologik konstruksiyaga integratsiyalashning nazariy asoslarini ishlab chiqishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Iqtisodiy madaniyatning pedagogik mohiyati va uni rivojlantirish mexanizmlarini o‘rganishga qaratilgan ilmiy ishlarda ushbu fenomenning ko‘p komponentli xususiyatiga alohida e’tibor qaratiladi. N.N.Nikulina, E.V.Shvarev va M.V.Sobolev iqtisodiy madaniyatni iqtisodiy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar, axloqiy-iqtisodiy yo‘nalganlik, faoliyatni tashkil etish usullari hamda insonning jamiyatdagi iqtisodiy xulq-atvorini tartibga soluvchi normalar majmui sifatida talqin qiladilar. Mualliflar iqtisodiy madaniyatni rivojlantirish metodologiyasida tizimli, kompetensiyaviy va faoliyatli yondashuvlarning o‘zaro bog‘liqligini asoslaydilar [1]. Mazkur pozitsiya iqtisodiy madaniyatni bir yo‘nalishdagi bilim yoki ko‘nikma emas, balki o‘zaro ta’sirlanuvchi elementlardan tashkil topgan tizim sifatida ko‘rish imkonini beradi. H.V.Tovkanets va V.M.Holovachko pedagogik profildagi mutaxassislarning iqtisodiy madaniyati va kompetentligini universitet ta’limi sharoitida o‘rganib, iqtisodiy madaniyatni iqtisodiy bilim va ko‘nikmalar, qadriyatli munosabat hamda iqtisodiy faoliyatda o‘zini namoyon eta olishni birlashtiruvchi yaxlit shaxsiy sifat sifatida tavsiflaydilar [2]. Mualliflarning fikricha, iqtisodiy tayyorgarlikda muammoli va loyihaviy ta’lim, munozara, trening hamda ishbilarmonlik o‘yinlaridan foydalanish talabaning iqtisodiy faoliyatga jalb etilishini kuchaytiradi. N.M.Quchqorova bo‘lajak pedagoglarning iqtisodiy madaniyatini kompleks yondashuv asosida tadqiq etib, mazkur jarayonni ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, ekologik, texnologik va pedagogik omillarning o‘zaro aloqasi bilan bog‘laydi [3]. Uning iqtisodiy madaniyat komponentlari va mezonlariga bag‘ishlangan tadqiqotida iqtisodiy ta’lim, iqtisodiy tarbiya va iqtisodiy faoliyat o‘zaro bog‘liq yo‘nalishlar sifatida ko‘rib chiqilib, kognitiv, motivatsion hamda kreativ-faoliyatli mezonlar asoslangan [4]. Bu yondashuv iqtisodiy madaniyatni bilim va faoliyat bilan bir qatorda motivatsion omillar asosida ham tahlil qilishga imkon beradi.

Kasbiy tayyorgarlikni real professional vaziyatlarga yaqinlashtirish masalasi A.A.Verbitsky tomonidan ishlab chiqilgan kontekstual ta’lim nazariyasida alohida o‘rin egallaydi. Muallifning ta’kidlashicha, ta’lim oluvchi an’anaviy o‘quv faoliyatidan bosqichma-bosqich faol va kasbiy vaziyatlarni modellashtiruvchi shakllarga o‘tishi lozim [5]. Mazkur nazariy pozitsiya bo‘lajak tarbiyachilarning iqtisodiy tayyorgarligini abstrakt iqtisodiy misollar bilan emas, balki maktabgacha ta’lim faoliyatiga xos vaziyatlar bilan bog‘lash uchun metodologik asos yaratadi.

Xorijiy tadqiqotlarda maktabgacha ta’lim pedagoglarining iqtisodiy-moliyaviy tayyorgarligi bilan ularning bolalarga mazkur mazmunni o‘rgatishga tayyorligi o‘rtasidagi aloqa ham qayd etilgan. Jayaraman, Jambunathan va Adesanya pedagoglarning shaxsiy moliyaviy bilimlarini kuchaytirish ularning moliyaviy mazmunni o‘qitishga bo‘lgan ishonchini oshirish imkoniyatiga ega ekanini ta’kidlaydilar [5]. Konowaluk-Nikitin va Nazaruk esa maktabgacha yoshdagi iqtisodiy ta’limni bilim, axloqiy munosabat va kundalik hayotiy tajriba birligida tashkil etish zarurligiga e’tibor qaratadilar [6]. Shuningdek, S.Jambunathan, J.Aldemir va J.D.Jayaraman erta yoshdagi moliyaviy ta’lim amaliyotiga bag‘ishlangan tadqiqotlarida iqtisodiy tushunchalarni bolalar hayotiga yaqin vaziyatlar orqali shakllantirishning pedagogik imkoniyatlarini ko‘rsatadilar [7]. Adabiyotlar tahlili iqtisodiy madaniyatning bilim, kompetensiya, faoliyat, qadriyat va professional kontekst bilan bog‘liqligini ko‘rsatsa-da, aynan bo‘lajak tarbiyachilar uchun mazkur metodologik yo‘nalishlarning funksiyalarini yagona tizimda birlashtirish masalasi qo‘shimcha ilmiy

asoslashni talab qiladi. Mazkur tadqiqot nazariy-metodologik xarakterga ega. Tadqiqot obyekti bo'lajak tarbiyachilarning iqtisodiy madaniyatini rivojlantirish jarayoni, tadqiqot predmeti esa mazkur jarayonni ilmiy asoslashga xizmat qiluvchi metodologik yondashuvlarning funksional imkoniyatlari va ularni integratsiyalash mexanizmlaridan iborat. Tadqiqot jarayonida nazariy tahlil, qiyosiy tahlil, ilmiy qarashlarni tizimlashtirish va umumlashtirish, strukturaviy-funksional tahlil hamda konseptual modellashtirish metodlaridan foydalanildi. Ilmiy manbalar iqtisodiy madaniyat, bo'lajak pedagoglarning iqtisodiy tayyorgarligi, maktabgacha iqtisodiy ta'lim va kasbiy-kontekstual tayyorgarlik bilan bevosita bog'liqligi asosida tanlandi. Nazariy tahlilda avvalo iqtisodiy madaniyatning mazmuniga oid ilmiy qarashlar o'rganildi. Keyingi bosqichda turli metodologik yondashuvlarning iqtisodiy madaniyatni rivojlantirish jarayonidagi yetakchi funksiyalari aniqlashtirildi. Qiyosiy tahlil yordamida har bir yondashuvning imkoniyatlari hamda uni mustaqil qo'llash natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan metodik cheklovlar belgilandi. Strukturaviy-funksional tahlil orqali yondashuvlarning bo'lajak tarbiyachilar iqtisodiy madaniyatining kognitiv, qadriyatli-motivatsion, xulqiy-amaliy, refleksiv-baholash va kasbiy-pedagogik transformatsion komponentlari bilan aloqasi aniqlandi. Konseptual modellashtirish asosida esa metodologik yondashuvlarni ketma-ket emas, balki o'zaro to'ldiruvchi yaxlit konstruksiya sifatida integratsiyalash mexanizmi ishlab chiqildi.

Tadqiqotda metodologik yondashuvlarni baholash uchun uchta asosiy savol mezon sifatida qo'llanildi: birinchidan, mazkur yondashuv iqtisodiy madaniyatning qaysi jihatini ochib beradi; ikkinchidan, u bo'lajak tarbiyachining qanday faoliyatini tashkil etishga imkon beradi; uchinchidan, ushbu yondashuv iqtisodiy bilimni kasbiy-pedagogik tajribaga aylantirish jarayonida qanday funksiyani bajaradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

O'tkazilgan nazariy tahlil bo'lajak tarbiyachilarning iqtisodiy madaniyatini rivojlantirishning metodologik asosini bitta yondashuv bilan chegaralash mazkur pedagogik fenomenning integrativ xususiyatini to'liq yoritishga imkon bermasligini ko'rsatdi.

Tizimli yondashuv: iqtisodiy madaniyatning yaxlit arxitekturasi. Tizimli yondashuv iqtisodiy madaniyatni bir-biridan ajralgan sifatlar yig'indisi sifatida emas, o'zaro funksional bog'langan komponentlardan tashkil topgan yaxlit tuzilma sifatida talqin qilish imkonini beradi. Mazkur tadqiqotda iqtisodiy madaniyat tarkibida kognitiv, qadriyatli-motivatsion, xulqiy-amaliy, refleksiv-baholash va kasbiy-pedagogik transformatsion komponentlar o'zaro bog'liq holda qaraladi. Bir komponentdagi yetishmovchilik boshqa komponentlarning to'laqonli namoyon bo'lishiga ta'sir ko'rsatadi. Masalan, talaba tejamkorlik tushunchasini yaxshi bilishi, biroq mavjud resurslarni amaliy vaziyatda oqilona taqsimlay olmasligi mumkin. Bunday holatda iqtisodiy bilimning mavjudligi iqtisodiy madaniyatning yetarli rivojlanganligini anglatmaydi. Xuddi shuningdek, talaba iqtisodiy jihatdan samarali qaror qabul qilishi, biroq uning pedagogik, ijtimoiy yoki qadriyatli oqibatlarini hisobga olmasligi mumkin. Tizimli yondashuvning yana bir muhim funksiyasi rivojlanish jarayonida qayta aloqani ta'minlashdir. Bu jarayon diagnostika - pedagogik ta'sir - iqtisodiy faoliyat - natija - refleksiya - korreksiya munosabatida namoyon bo'ladi. Shunday qilib, iqtisodiy madaniyat statik emas, muntazam tahlil va korreksiya orqali rivojlanib boradigan tizim sifatida talqin qilinadi.

Kompetensiyaviy yondashuv: bilimdan natijaga o'tish

Kompetensiyaviy yondashuvning asosiy metodologik funksiyasi talabaning iqtisodiy bilimga ega bo'lishidan ushbu bilimdan real vaziyatda foydalanish qobiliyatiga o'tishini ta'minlashdir. Agar iqtisodiy madaniyat faqat o'zlashtirilgan axborot hajmi orqali aniqlansa, pedagogik natija "biladi - bilmaydi" chegarasida qoladi. Kompetensiyaviy yondashuv esa "biladi - tushunadi - qo'llaydi - taqqoslaydi - tanlaydi - asoslaydi - baholaydi" ketma-ketligini talab qiladi.

Bo‘lajak tarbiyachi uchun bu mavjud resurslar asosida faoliyatni rejalashtirish, pedagogik ehtiyojlarni ustuvorlashtirish, vaqt va materiallarni taqsimlash, muqobil yechimlarni ishlab chiqish hamda iqtisodiy va pedagogik jihatdan maqbul qaror qabul qilish qobiliyatida namoyon bo‘ladi. Biroq kompetensiyaviy yondashuvning o‘zi iqtisodiy qarorning qadriyatli mazmunini to‘liq ochib bermaydi. “Qila olish” hali “nima uchun aynan shunday qilish kerak?” degan savolga javob bermaydi. Shu sababli u aksiologik yondashuv bilan to‘ldirilishi zarur.

Faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv: iqtisodiy bilimni tajribaga aylantirish

Faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuvda iqtisodiy madaniyatni rivojlantirishning asosiy vositasi talabaning faol iqtisodiy-pedagogik vaziyatga jalb qilinishidir.

Iqtisodiy tushunchani faqat ta’riflash talabada real iqtisodiy xulq-atvorni shakllantirmaydi. Masalan, “resurslarning cheklanganligi”ni anglash uchun talaba mavjud budjet, vaqt, material va pedagogik ehtiyojlar o‘rtasida real yoki modellashtirilgan tanlovni amalga oshirishi lozim.

Bunda iqtisodiy bilim quyidagi transformatsiyani boshdan kechiradi:

axborot - muammo - faoliyat - muqobil variant - tanlov - qaror - harakat - natija. Masalan, talabaga maktabgacha ta’lim guruhi rivojlantiruvchi muhitini cheklangan mablag‘ asosida boyitish vazifasi berilganda u qaysi ehtiyoj birlamchi ekanini aniqlaydi, xarid va qayta foydalanish variantlarini qiyoslaydi hamda o‘z tanlovini pedagogik natija bilan bog‘laydi. Ana shu faoliyat davomida iqtisodiy tushuncha shaxsiy iqtisodiy tajribaga aylanadi.

Aksiologik yondashuv: iqtisodiy qarorning qadriyatli regulyatori

Iqtisodiy madaniyatni faqat samaradorlik, foyda yoki xarajat mezonlari orqali talqin etish pedagog kasbining ijtimoiy va tarbiyaviy mohiyatiga mos kelmaydi. Bo‘lajak tarbiyachining qarorida halol mehnat, tejamkorlik, mas’uliyat, adolat, mulkka ehtiyotkorlik, oqilona iste’mol, jamoa manfaati va bolalar xavfsizligi kabi qadriyatlar ishtirok etishi lozim.

Aksiologik yondashuv iqtisodiy qarorni “qancha foyda?” savolidan “qanday yo‘l bilan va qanday oqibat hisobiga?” savoliga olib chiqadi. Masalan, narxi arzon bo‘lgan didaktik vosita xizmat muddati qisqa yoki bolaning xavfsizligiga to‘liq javob bermasa, faqat narx mezoni asosidagi qaror iqtisodiy jihatdan ham uzoq muddatda maqbul bo‘lmasligi mumkin. Talaba narx bilan birga sifat, xizmat muddati, bolalar manfaatlari va qayta foydalanish imkoniyatini ham baholashi lozim. Mazkur yondashuv iqtisodiy bilim bilan mas’uliyatli xulq-atvor o‘rtasidagi qadriyatli bog‘lanishni ta’minlaydi.

Integrativ yondashuv: fan, faoliyat va tajribalarni birlashtirish

Bo‘lajak tarbiyachining iqtisodiy madaniyati faqat bir o‘quv fani doirasida shakllanadigan sifat emas. U pedagogika, psixologiya, maktabgacha ta’lim metodikasi, raqamli ta’lim, ekologik tarbiya va pedagogik amaliyot mazmunlari kesishmasida rivojlanadi. Shu sababli integrativ yondashuv mazkur tadqiqotda uch darajada talqin qilinadi.

Birinchi daraja - mazmuniy integratsiya. Bunda iqtisodiy tushuncha va qadriyatlar pedagogik va psixologik bilimlar bilan bog‘lanadi. Masalan, “tanlov” iqtisodiy tushuncha sifatida o‘rganilishi bilan birga bolalarda mustaqillik va mas’uliyatni rivojlantirish mexanizmi bilan bog‘lanadi.

Ikkinchi daraja - faoliyatlar integratsiyasi. Ma’ruza, seminar, mustaqil ta’lim, loyiha faoliyati va pedagogik amaliyot bir-birini davom ettiruvchi jarayonga aylantiriladi.

Uchinchi daraja - shaxsiy-kasbiy integratsiya. Talabaning shaxsiy hayotda orttirgan iqtisodiy tajribasi kasbiy pedagogik faoliyat mazmuniga transformatsiya qilinadi.

Demak, integrativ yondashuv iqtisodiy mazmunni fragmentarlikdan chiqarib, uni bo‘lajak tarbiyachining umumiy kasbiy tayyorgarligi tarkibiga kiritadi.

Kontekstual yondashuv: o‘quv vaziyatidan kasbiy vaziyatga o‘tish

Kontekstual yondashuv iqtisodiy mazmunning real professional faoliyat bilan aloqasini ta’minlaydi. Verbitsky ta’lim oluvchining oddiy o‘quv faoliyatidan faol va professional faoliyatni modellashtiruvchi shakllarga o‘tishini kontekstual ta’limning muhim xususiyati sifatida ko‘rsatadi[5]. Bo‘lajak tarbiyachilarning iqtisodiy madaniyatini rivojlantirishda bu iqtisodiy topshiriqlarning aynan maktabgacha ta’lim kontekstida qurilishini talab qiladi. Masalan, “budjet taqsimoti” oddiy moliyaviy misol emas, guruhdagi rivojlantiruvchi markazlarni boyitish vaziyatiga; “resurslardan foydalanish” didaktik material yaratish uchun vaqt, material va inson resursini taqsimlashga; “tejamkorlik” esa suv, elektr energiyasi, qog‘oz va o‘yinchoqlarga ehtiyotkor munosabatni pedagogik tashkil etishga aylantiriladi. Shu tarzda talaba iqtisodiy tushunchani professional pedagogik faoliyatdan ajralgan holda emas, kelajak kasbining real kontekstida o‘zlashtiradi.

Metodologik yondashuvlarning funksional integratsiyasi. Tahlil natijasida ko‘rib chiqilgan yondashuvlarning har biri iqtisodiy madaniyat rivojining muayyan jihatini ochib berishi, biroq ularni alohida qo‘llash jarayonning barcha tomonlarini to‘liq qamrab olmasligi aniqlandi.

1-jadval.

Bo‘lajak tarbiyachilarning iqtisodiy madaniyatini rivojlantirishda metodologik yondashuvlarning funksional imkoniyatlari

Metodologik yondashuv	Yetakchi metodologik savol	Asosiy funksiyasi	Kutiladigan pedagogik natija
Tizimli	Iqtisodiy madaniyat qanday yaxlit tuzilishga ega?	komponentlar va ular o‘rtasidagi aloqalarni birlashtirish	yaxlit iqtisodiy madaniyat tuzilmasi
Kompetensiyaviy	Talaba iqtisodiy bilim bilan nima qila oladi?	bilimni amaliy natijaga aylantirish	iqtisodiy vaziyatni hal qilish kompetensiyasi
Faoliyatga yo‘naltirilgan	Iqtisodiy sifat qanday faoliyatda shakllanadi?	tanlov, qaror va amaliy tajribani tashkil etish	mas’uliyatli iqtisodiy xulq-atvor
Aksiologik	Qarorni qaysi qadriyatlar boshqaradi?	iqtisodiy faoliyatning qadriyatli regulyatsiyasi	mas’uliyatli va qadriyatga asoslangan tanlov
Integrativ	Iqtisodiy mazmun boshqa bilim va faoliyatlar bilan qanday bog‘lanadi?	fanlar, faoliyatlar va tajribani birlashtirish	iqtisodiy mazmunning kasbiy tayyorgarlikka integratsiyasi
Kontekstual	Iqtisodiy tajriba kelajak kasbiga qanday ko‘chiriladi?	o‘quv vaziyatini professional kontekstga yaqinlashtirish	kasbiy-pedagogik iqtisodiy tajriba

Jadvaldagi tahlildan ko‘rinadiki, yondashuvlar bir-birini almashtirmaydi, aksincha, o‘zaro to‘ldiradi. Tizimli yondashuv iqtisodiy madaniyatning tuzilishini belgilasa, kompetensiyaviy yondashuv uning kutiladigan faoliyat natijasini aniqlaydi. Faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv mazkur natijaning amaliy tajriba orqali shakllanishini ta’minlaydi. Aksiologik yondashuv iqtisodiy qarorning qadriyatli chegaralarini belgilaydi, integrativ yondashuv iqtisodiy mazmunni boshqa kasbiy bilim va faoliyatlar bilan birlashtiradi, kontekstual yondashuv esa olingan iqtisodiy tajribani bo‘lajak tarbiyachining professional faoliyatiga yaqinlashtiradi.

Shu asosda mazkur tadqiqotda metodologik integratsiyaning quyidagi mualliflik konstruksiyasi taklif etiladi:

- tizimli yaxlitlik
- kompetensiyaviy natija
- faoliyatli tajriba
- qadriyatli tanlov
- integrativ bog‘lanish

- kasbiy kontekst
- refleksiv va kasbiy-pedagogik transformatsiya.

Mazkur konstruksiyada refleksiya alohida metodologik yondashuv sifatida emas, barcha yondashuvlarni o‘zaro bog‘lovchi qayta aloqa va boshqaruv mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi. Talaba o‘z qarorining sabab va natijalarini tahlil qiladi, e’tibordan chetda qolgan omillarni aniqlaydi va keyingi faoliyatiga korreksiya kiritadi.

Metodologik integratsiyaning iqtisodiy madaniyat komponentlari bilan bog‘liqligi

Taklif etilgan yondashuvlar iqtisodiy madaniyatning komponentli tuzilishi bilan ham funksional aloqaga ega. Tizimli yondashuv barcha komponentlarning yaxlitligini ta’minlaydi. Kompetensiyaviy va faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuvlar, avvalo, kognitiv hamda xulqiy-amaliy komponentlarning o‘zaro o‘tishini ta’minlaydi. Aksiologik yondashuv qadriyatli-motivatsion komponentning metodologik asosini tashkil qiladi. Refleksiv qayta aloqa refleksiv-baholash komponentining rivojlanishiga xizmat qiladi. Integrativ va kontekstual yondashuvlar esa shaxsiy iqtisodiy tajribani kasbiy-pedagogik faoliyatga ko‘chirishni ta’minlovchi kasbiy-pedagogik transformatsion komponent uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Shu sababli iqtisodiy madaniyat rivojlanishining ichki pedagogik mantig‘i quyidagicha ifodalanishi mumkin:

iqtisodiy bilim - iqtisodiy anglash - qadriyatli munosabat - iqtisodiy tanlov - mas’uliyatli xulq-atvor - refleksiya - kasbiy-pedagogik transformatsiya.

Bu ketma-ketlikda bilim yakuniy natija emas. U iqtisodiy anglashning boshlang‘ich bazasi hisoblanadi. Anglangan iqtisodiy mazmun qadriyatli mezon bilan baholanadi, qadriyatli munosabat real tanlovda namoyon bo‘ladi, tanlov asoslangan qarorga, qaror esa mas’uliyatli xulq-atvorga o‘tadi. Refleksiya ushbu tajribani qayta tahlil qilishga imkon beradi. Yakunda talaba egallagan iqtisodiy tajribasini bo‘lajak kasbiy faoliyatiga transformatsiya qiladi. Masalan, talaba resurslarning cheklanganligi va tanlov zaruratini shaxsiy tajribada anglagach, ushbu mazmunni maktabgacha yoshdagi bolalar uchun “Hamma narsani bir vaqtda tanlay olamizmi?”, “Qaysi ikkita buyumni tanlaymiz va nima uchun?”, “Qog‘ozni qanday tejash mumkin?” kabi sodda pedagogik vaziyatlarga aylantira olishi kerak. Bu nuqtada bo‘lajak tarbiyachining iqtisodiy madaniyati umumiy iqtisodiy tayyorgarlikdan kasbiy-pedagogik iqtisodiy madaniyat darajasiga ko‘tariladi.

Taklif etilgan metodologik integratsiyaning ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijasida metodologik yondashuvlarni integratsiyalashning uchta muhim ilmiy-metodik jihati aniqlandi.

Birinchidan, iqtisodiy madaniyatni bitta metodologik paradigma doirasida tushuntirishdan voz kechilib, uning strukturasi, natijasi, faoliyat mexanizmi, qadriyatli asosi va professional konteksti yagona tizimda birlashtirildi.

Ikkinchidan, iqtisodiy madaniyat rivojining metodologik mantig‘i bilim olish bilan yakunlanmay, faoliyat - tanlov - qaror refleksiya - kasbiy transformatsiya bosqichlarigacha kengaytirildi.

Uchinchidan, bo‘lajak tarbiyachi uchun iqtisodiy madaniyatning yakuniy natijasi shaxsning o‘zi uchun maqbul iqtisodiy xulq-atvorni shakllantirish bilangina emas, olingan iqtisodiy tajribani maktabgacha yoshdagi bolalarning xususiyatlariga mos pedagogik mazmunga transformatsiya qilish qobiliyati bilan belgilandi. Mazkur natija metodologik yondashuvlar integratsiyasini keyingi bosqichda bo‘lajak tarbiyachilarning iqtisodiy madaniyatini rivojlantirish konsepsiyasi, pedagogik modeli, metodik tizimi va diagnostik mezonlarini ishlab chiqish uchun nazariy asos sifatida qo‘llash imkonini beradi.

XULOSA

O‘tkazilgan nazariy tahlil bo‘lajak tarbiyachilarning iqtisodiy madaniyatini rivojlantirish ko‘p komponentli va ko‘p bosqichli pedagogik jarayon ekanligini ko‘rsatdi. Mazkur jarayonni samarali tashkil etish uchun birgina metodologik yondashuvga tayanish

iqtisodiy madaniyatning barcha funksional xususiyatlarini to'liq ochib berishga imkon bermaydi. Tizimli yondashuv iqtisodiy madaniyatning yaxlit strukturasi va uning tarkibiy qismlari o'rtasidagi bog'lanishni aniqlashga xizmat qiladi. Kompetensiyaviy yondashuv iqtisodiy bilimni amaliy natijaga yo'naltiradi. Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv tanlov, qaror va iqtisodiy harakat tajribasini shakllantiradi. Aksiologik yondashuv iqtisodiy qarorning qadriyatli asoslarini belgilaydi. Integrativ yondashuv iqtisodiy mazmunning boshqa fanlar, faoliyatlar va shaxsiy tajriba bilan bog'lanishini ta'minlaydi. Kontekstual yondashuv esa o'quv faoliyatini bo'lajak tarbiyachining real professional vaziyatlariga yaqinlashtiradi. Shu asosda metodologik integratsiyaning "tizimli yaxlitlik - kompetensiyaviy natija - faoliyatli tajriba - qadriyatli tanlov - integrativ bog'lanish - kasbiy kontekst - refleksiv va kasbiy-pedagogik transformatsiya" konstruksiyasi taklif etildi.

Taklif etilgan metodologik konstruksiyani pedagogik ta'lim amaliyotida qo'llashda iqtisodiy mazmunni alohida nazariy axborot shaklida berishdan ko'ra uni real iqtisodiy-pedagogik vaziyatlar bilan uyg'unlashtirish, muqobil tanlov va qaror talab qiluvchi faol topshiriqlardan foydalanish, iqtisodiy qarorlarni qadriyatli mezonlar asosida baholash hamda talabaning har bir muhim qarorini refleksiv tahlil qilish maqsadga muvofiq. Shuningdek, bo'lajak tarbiyachining iqtisodiy tayyorgarligini baholashda faqat iqtisodiy bilimlarni emas, resurslardan foydalanish, asoslangan tanlov qilish, qarorning oqibatlarini prognozlash, o'z xulq-atvorini korreksiya qilish va iqtisodiy mazmunni bolalar uchun pedagogik faoliyatga transformatsiya qilish qobiliyatini ham hisobga olish zarur. Natijada metodologik integratsiya bo'lajak tarbiyachining iqtisodiy madaniyatini oddiy iqtisodiy savodxonlik darajasidan iqtisodiy bilim, qadriyatli munosabat, mas'uliyatli faoliyat, refleksiya va professional-pedagogik tajribani birlashtiruvchi integrativ kasbiy-shaxsiy sifat darajasiga olib chiqish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Никулина Н.Н., Шварев Е.В., Соболев М.В. Педагогические условия развития экономической культуры студентов // Образовательные ресурсы и технологии. - 2025. - №3(52). - С. 16-26.
2. Товканець Г.В., Головачко В.М. Розвиток економічної культури і компетентності фахівців педагогічного профілю в умовах університетської освіти // Імідж сучасного педагога. - 2025. - №1(220). - С. 26-30.
3. Quchqorova N.M. Kompleks yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining iqtisodiy madaniyatini rivojlantirish: pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. - Nukus, 2020.
4. Verbitsky A.A. Contextual learning technologies in the system of continuous professional education // International Journal of Continuing Engineering Education and Life-Long Learning. - 1991. - Vol. 1, No. 3. - P. 263-268.
5. Jayaraman J.D., Jambunathan S., Adesanya R. Preparedness of early childhood teachers to teach financial literacy: evidence from the US // Education 3-13. - 2022. - Vol. 50, No. 8. - P. 1121-1136.
6. Konowaluk-Nikitin H., Nazaruk S. Economic education of preschool children. A pedagogical view of the phenomenon // Journal of Vasyl Stefanyk Precarpathian National University. - 2024. - Vol. 11, No. 3. - P. 36-44.
7. Jambunathan S., Aldemir J., Jayaraman J.D. Teaching Financial Literacy in Early Childhood Classrooms // Early Childhood Education Journal. - 2025. - Vol. 53, No. 8. - P. 2983-2989.